


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI



Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti, "Menejment" kafedrası assistenti

Annotatsiya. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy mexanizmi tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aksariyat oilaviy korxonalarda boshqaruv vakolatlari oila rahbari qo'lida markazlashgan bo'lib, strategik va joriy qarorlar asosan uning tomonidan qabul qilinadi. Mazkur holat boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilishga xizmat qilishi bilan birga, vazifalarning funksional taqsimlanishi, professional menejmentni joriy etish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish hamda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Tahlil natijalari oilaviy korxonalarda boshqaruv samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oilaviy korxona, boshqaruv, tashkiliy mexanizm, tizimli tahlil, boshqaruv vakolatlari, markazlashgan boshqaruv, strategik qarorlar, funksional taqsimot, professional menejment, ichki nazorat tizimi, boshqaruv samaradorligi, raqamlashtirish.

Аннотация. Проведён системный анализ организационного механизма управления деятельностью семейных предприятий. Результаты исследования показывают, что в большинстве семейных предприятий управленческие полномочия сосредоточены в руках главы семьи, а стратегические и текущие решения принимаются преимущественно им. Несмотря на оперативность принятия управленческих решений, сохраняются проблемы, связанные с функциональным распределением обязанностей, внедрением профессионального менеджмента, совершенствованием системы внутреннего контроля и цифровизацией процессов управления. Полученные результаты позволяют определить приоритетные направления повышения эффективности управления семейными предприятиями.

Ключевые слова: семейное предприятие, управление, организационный механизм, системный анализ, управленческие полномочия, централизованное управление, стратегические решения, функциональное распределение, профессиональный менеджмент, система внутреннего контроля, эффективность управления, цифровизация.

Abstract. A systematic analysis of the organizational mechanism for managing family businesses is presented. The findings indicate that managerial authority in most family businesses is concentrated in the hands of the family head, who is primarily responsible for making strategic and operational decisions. Although this approach ensures prompt decision-making, it also reveals challenges related to the functional distribution of responsibilities, the introduction of professional management, the improvement of internal control systems, and the digitalization of management processes. The results identify key priorities for improving the effectiveness of management in family businesses.

Keywords: family business, management, organizational mechanism, system analysis, managerial authority, centralized management, strategic decisions, functional distribution, professional management, internal control system, management efficiency, digitalization.

KIRISH

Oilaviy korxona oila a'zolarining umumiy iqtisodiy manfaatlari, mulkiy munosabatlari va shaxsiy mehnatiga asoslangan tadbirkorlik subyekti bo'lib, uning faoliyati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, oila daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mahalliy iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shishga qaratilgan. Bunday korxonalarning barqaror faoliyat yuritishi, eng avvalo, boshqaruvning tashkiliy mexanizmi qay darajada samarali shakllantirilganiga bog'liq bo'lib, mazkur mexanizm boshqaruv funksiyalarini taqsimlash, qaror qabul qilish tartibini belgilash, mas'uliyat va vakolatlarni taqsimlash, mehnat munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.



O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulki, shuningdek, ularning shaxsiy mol-mulki negizida tashkil etiladigan hamda tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi kichik tadbirkorlik subyekti hisoblanadi. Qonunga ko'ra, oilaviy korxona ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi, yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi, mustaqil balans va mol-mulkka egalik qiladi, o'z nomidan huquq va majburiyatlarni amalga oshiradi hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlarda mustaqil ishtirok etadi¹. Mazkur huquqiy asoslar oilaviy korxonalarda tashkiliy boshqaruv tizimini shakllantirish va uning institutsional barqarorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish masalalari xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, oilaviy biznesni boshqarishda diniy qadriyatlarning institutsional ahamiyati, oilaviy biznesning avlodlar almashinuvi, turli ijtimoiy-iqtisodiy muhitlarda rivojlanish xususiyatlari hamda mahalliy iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri chuqur o'rganilgan. Shuningdek, oilaviy korxonalarning tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv modeli va barqaror rivojlanish omillari nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berilgan [1–4].

Oilaviy korxonalarda inson resurslarini samarali boshqarish, tashkiliy identifikatsiyani shakllantirish, korporativ boshqaruv tamoyillarini oilaviy boshqaruv bilan uyg'unlashtirish hamda boshqaruvning zamonaviy nazariy yondashuvlarini ishlab chiqish masalalari ham alohida tadqiq etilgan. Mazkur ilmiy ishlarda boshqaruvning institutsional mexanizmlari va ularning korxona samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan [5–7].

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari, oilaviy biznesni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari, boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari keng tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqotlarda oilaviy korxonalarda resurslardan oqilona foydalanish, korporativ va oilaviy boshqaruv elementlarini uyg'unlashtirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha muhim ilmiy xulosalar shakllantirilgan [8–13].

O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, oilaviy korxonalar faoliyatini tashkil etish, ularning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini boshqarish, oila moliyasi va uy xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirish, investitsiya resurslarini jalb etish hamda oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy biznesning rolini oshirish, iqtisodiy natijadorlikni yuksaltirish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan [14–22].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda oilaviy korxonalarni boshqarishning tashkiliy mexanizmini tizimli yondashuv asosida kompleks baholash, boshqaruv vakolatlarining taqsimlanishi, funksional boshqaruvni rivojlantirish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish hamda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur jihatlar ushbu tadqiqotning ilmiy yo'nalishini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ikki bosqichli tahlil yondashuvi asosida amalga oshirilgan. Birinchi bosqichda mavjud holat miqdoriy jihatdan diagnostika qilinib, asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Ikkinchi bosqichda esa aniqlangan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy mexanizm ishlab chiqiladi. Mazkur yondashuv tavsiflovchi tahlildan farqli ravishda tahlil natijalarini amaliy takliflar bilan uzviy bog'lash hamda oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalarning tashkiliy mexanizmini tizimli tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, aksariyat korxonalarda boshqaruv vakolatlari oila rahbari qo'lida markazlashgan bo'lib, strategik va joriy qarorlar asosan u tomonidan qabul qilinadi. Bunday yondashuv boshqaruv qarorlarining tezkorligini ta'minlashi bilan birga, vazifalarning funksional taqsimlanishi, professional menejmentni joriy etish, ichki nazorat tizimini rivojlantirish hamda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish yo'nalishlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, korxona faoliyati kengayib borishi bilan boshqaruv funksiyalarini ixtisoslashtirish va vakolatlarini delegatsiya qilishning ahamiyati ortib bormoqda.

Tizimli tahlil natijalari shuni ham ko'rsatadiki, Andijon viloyatidagi oilaviy korxonalarning tashkiliy mexanizmi

1 Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 26 апрелда «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi ЎРҚ 327-сонли Қонуни // Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-сонли Қонуни тахририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон

samaradorligiga inson kapitali, rahbarning boshqaruv kompetensiyasi, oila a'zolari o'rtasidagi mehnat taqsimoti, korporativ madaniyat, axborot almashinuvi hamda raqamli boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish darajasi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, davlat tomonidan yaratilgan huquqiy va institutsional shart-sharoitlar hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mazkur tizimning barqaror faoliyat yuritishida muhim tashqi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Oilaviy korxonaning boshqaruv tizimida uning rahbari markaziy o'rinni egallaydi. Yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda korxona nomidan uning rahbari ish yuritadi. Korxona rahbari oilaviy korxona ishtirokchilari orasidan ularning bir ovozdan qabul qilingan qarori asosida tayinlanadi hamda korxona manfaatlarini ifodalash, shartnomalar tuzish, moliyaviy va tashkiliy qarorlarni qabul qilish vakolatiga ega bo'ladi. Mazkur omillar dissertatsiyaning **1-jadvalida** oila shakli va mulkiy holatdagi o'zgarishlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan bo'lib, ular boshqaruvning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini asoslashga xizmat qiladi.

1-jadval

Oilaviy tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va boshqarish tizimi²

Ko'rsatkichlar	Asosiy (yadro) oila	Kengaygan oila	Aralash oila	Ko'p avlodli va qarindoshlar ishtirokidagi oila
Oilaviy korxonada ishtirok etuvchi a'zolar soni	kam (2–4 nafar)	o'rtacha (4–6 nafar)	o'rtacha, tarkibi o'zgaruvchan	ko'p (6 nafardan ortiq)
Boshqaruv vakolatlarining taqsimlanishi	markazlashgan, bir rahbar tomonidan amalga oshiriladi	qisman taqsimlangan, mas'uliyat oila a'zolari o'rtasida bo'linadi	funksional yo'nalishlar bo'yicha taqsimlangan	ko'p bosqichli va keng taqsimlangan
Qaror qabul qilish jarayoni	tez va sodda	o'zaro kelishuv asosida	muhokama va muvofiqlashtirish talab etiladi	kollegial tarzda, ko'proq vaqt talab etadi
Tashkiliy boshqaruv mexanizmining murakkablik darajasi	past	o'rtacha	o'rtacha yoki yuqori	yuqori
Nazorat va muvofiqlashtirish darajasi	oddiy	o'rtacha	o'rtacha darajada muvofiqlashtirish talab etiladi	kuchli ichki nazorat va muvofiqlashtirish zarur
Resurslardan foydalanish samaradorligi	cheklangan	barqaror	sharoitga qarab o'zgaradi	yuqori, samarali boshqaruvni talab etadi
Andijon viloyati sharoitida boshqaruv samaradorligi	kichik biznes subyektlari uchun yuqori	oilaviy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida samarali	tadbirkorlik yo'nalishiga qarab farqlanadi	yirik oilaviy ishlab chiqarish va agrobiznes subyektlari uchun samarali

Andijon viloyatidagi oilaviy korxonalar faoliyatini tizimli tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, boshqaruv mexanizmining samaradorligi oilaning tarkibi, mulkiy munosabatlari, ishtirokchilarning iqtisodiy manfaatlar hamda boshqaruv vakolatlarining aniq taqsimlanganligiga bevosita bog'liqdir. Ushbu holat boshqaruvning markazlashgan modelini shakllantirishi bilan birga, korxona rivojlanishi jarayonida vazifalarni delegatsiya qilish, funksional boshqaruvni joriy etish hamda professional menejment elementlarini qo'llashning ahamiyatini yanada oshiradi. Ayniqsa, oila tarkibidagi o'zgarishlar, mulkdorlar sonining ortishi, avlodlar almashinuvi va kapital hajmining o'sishi boshqaruv mexanizmini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu munosabat bilan oilaviy korxonalarni tashkil etish va boshqarish jarayonida oilaning tashkiliy tuzilmasi, mulkiy munosabatlari hamda ishtirokchilar o'rtasidagi vakolatlar taqsimotida yuz beradigan o'zgarishlarni tizimli baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Andijon viloyatidagi oilaviy korxonalar faoliyatini tizimli tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, oila tarkibining shakllanishi korxonaning tashkiliy boshqaruv mexanizmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Asosiy oilalarda boshqaruv tizimi sodda va markazlashgan bo'lib, qarorlar tezkor qabul qilinadi. Kengaygan va aralash oilalarda boshqaruv vazifalarini taqsimlash, muvofiqlashtirish hamda

2 Oilaviy tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish, uni boshqarish strukturalarini muallif tomonidan o'rganishlar asosida tuzilgan ishlanmasi



funksional mas'uliyatlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'p avlodli va qarindoshlar ishtirokidagi oilaviy korxonalarda esa boshqaruv tizimi nisbatan murakkab bo'lib, samarali faoliyat yuritish uchun vakolatlarni aniq taqsimlash, ichki nazoratni kuchaytirish hamda zamonaviy tashkiliy boshqaruv mexanizmlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv Andijon viloyatida oilaviy tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Andijon viloyatida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2015–2026-yillar davomida viloyat iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Bu jarayon asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining ortishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishi, mavjud korxonalarning modernizatsiya qilinishi hamda oilaviy korxonalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga xizmat qildi. Investitsiya faolligining ortishida oilaviy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Oilaviy korxonalar uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi va dinamikasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval


Oilaviy korxonalar uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi, foizda³

Yillar	Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibi, %	Shu jumladan,			
		Yangi oilaviy korxona obyektlarni barpo etish	Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish	Rekonstruksiya, ta'mirlash va modernizatsiya ishlari	Boshqa investitsiya xarajatlari
2015	100	54,5	0,2	22,7	21,6
2016	100	58,2	0,8	19,7	21,3
2017	100	57,5	0,4	19,5	22,6
2018	100	50,8	0,7	20,9	27,6
2019	100	53,4	0,3	22,8	23,5
2020	100	53,6	0,1	28,7	17,7
2021	100	55,4	0,2	29,6	14,8
2022	100	56,1	0,3	30,8	12,8
2023	100	56,7	0,4	31,5	11,4
2024	100	57,2	0,4	32,1	10,3
2025	100	57,9	0,5	32,7	8,9
2026	100	58,4	0,5	33,4	7,7

Andijon viloyatida oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirishda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki investitsiyalarning qaysi yo'nalishlarga yo'naltirilishi oilaviy korxonalarning ishlab chiqarish salohiyati, texnik-texnologik imkoniyatlari hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilashda muhim o'rin tutadi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, **2015–2026-yillar** davomida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibida muayyan o'zgarishlar kuzatilgan. Tahlil qilinayotgan davrda investitsiyalarning eng katta qismi yangi oilaviy korxona obyektlarini barpo etishga yo'naltirilgan. Xususan, **2015-yilda** ushbu yo'nalishning ulushi **54,5 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **2026-yilga** kelib **58,4 foizga** yetgan. Mazkur ko'rsatkichning o'sishi hududda yangi oilaviy korxonalarni tashkil etish, tadbirkorlik subyektlari sonini ko'paytirish hamda yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirishga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining o'sishi oilaviy korxonalarda yangi ishlab chiqarish obyektlarini tashkil etish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish hamda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi (**1-rasmga qarang**). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, **2015–2026-yillar** davomida oilaviy korxonalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **2015-yilda 35,8 mlrd so'mni** tashkil etgan bo'lsa, **2021-yilga** kelib **854,3 mlrd so'mga** yetgan. Ushbu davr mobaynida investitsiyalar hajmi qariyb **24 barobarga** oshgan.

3 Andijon viloyati statistika boshqarmasi 2015-2026-yillardagi yillik statistik axborotnoma materiallaridan foydalangan holda tuzilgan.



1-rasm. Oilaviy korxonalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy investitsiya mablag'larining dinamikasi⁴

2015–2026-yillarda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'sish dinamikasi respublikada oilaviy korxonalarning rivojlanishi uchun qulay investitsiya muhiti shakllanayotganini ko'rsatadi. Investitsiya mablag'lari hajmining ortishi oilaviy tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda milliy iqtisodiyotdagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda (3-jadval).

3- jadval

Andijon viloyatida oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan olingan sof tushumi dinamikasi, mln so'm⁵

Yillar	Jami	Qishloq va o'rmon xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo	Tashish va saqlash	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	Axborot va aloqa	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	Boshqalar
2015	9265,0	652,3	4956,2	1280,4	1543,6	16,0	466,4	35,4	109,8	205,3
2016	17510,3	2006,6	11714,0	191,3	1549,4	42,7	1489,5	48,5	105,1	468,5
2017	18541,2	2086,1	8681,4	80,6	4381,5	57,8	2345,6	62,6	48,6	854,7
2018	22810,6	1107,1	12105,8	2710,6	2059,2	98,2	2230,9	125,4	188,6	2283,1
2019	38643,1	868,3	24767,4	3689,6	3059,0	158,9	4068,7	109,6	380,4	1541,1
2020	75909,8	3335,3	37290,3	2605,2	23962,4	107,1	4488,5	80,3	793,8	3247,0
2021	81903,0	5113,0	7524,0	2035,0	15623,0	669,3	9633,0	2268,0	6956,0	15816,8
2022	96540,5	6125,4	43890,6	2450,7	18450,5	820,6	11480,2	2720,5	8320,4	20302,1
2023	114230,8	7380,2	52340,7	2980,5	21980,4	980,4	13670,5	3280,6	9980,5	21637,5
2024	136850,4	8925,6	62850,3	3610,8	26450,7	1180,7	16420,8	3950,4	12040,6	21421,5
2025	163420,7	10640,8	75240,8	4275,6	31680,9	1425,3	19680,3	4740,8	14450,8	21326,2
2026	194580,3	12780,5	89960,4	5080,4	37820,6	1700,8	23450,7	5670,2	17320,4	20796,3

Andijon viloyatida oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyati natijalarini baholashda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan olingan sof tushum hajmi muhim iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich oilaviy korxonalarning ishlab chiqarish salohiyati, bozordagi faolligi, investitsiya faolligi hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini ifodalaydi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, **2015–2026-yillar** davomida Andijon viloyatida oilaviy korxonalarning umumiy sof tushumi sezilarli darajada o'sgan. Xususan, **2015-yilda** jami tushum **9 265,0 mln so'mni** tashkil etgan bo'lsa,

⁴ Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

⁵ Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumoti asosida tayyorlandi.



2026-yilga kelib **194 580,3 mln so'mga** yetgan. Ya'ni tahlil davrida mazkur ko'rsatkich qariyb **21 barobarga** oshgan. Bu holat oilaviy korxonalar faoliyati ko'lami kengaygani, ishlab chiqarish hajmlari ortgani hamda xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanganini ko'rsatadi.

Sof tushum dinamikasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat.

1. Sanoat sohasining rivojlanishi. Oilaviy korxonalarning sof tushumi o'sishida sanoat tarmog'i yetakchi omillardan biri bo'lgan. **2015-yilda** sanoat sohasidagi tushum **4 956,2 mln so'mni** tashkil etgan bo'lsa, **2026-yilda** ushbu ko'rsatkich **89 960,4 mln so'mga** yetgan. Bu qariyb **18 barobar** o'sishni anglatadi.

Sanoat tarmog'idagi o'sishning asosiy omillari sifatida yangi ishlab chiqarish quvvatlarining tashkil etilishi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining ortishi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish hamda oilaviy korxonalarning ishlab chiqarish yo'nalishiga ko'proq ixtisoslashganini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, **2021-yilda** sanoat sohasidagi tushum **7 524,0 mln so'mni** tashkil etgan. Ushbu holat iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatgan tashqi omillar bilan izohlanishi mumkin. Keyingi yillarda esa sanoat tarmog'ida o'sish sur'atlari tiklanib, **2026-yilda** eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan.

2. Savdo faoliyatining ta'siri. Oilaviy korxonalarning sof tushumi shakllanishida savdo sohasi ham muhim o'rin egallaydi. **2015-yilda** savdo tarmog'idagi tushum **1 543,6 mln so'mni** tashkil etgan bo'lsa, **2026-yilda** **37 820,6 mln so'mga** yetgan. Savdo sohasidagi o'sishga ichki iste'mol bozorining kengayishi, oilaviy tadbirkorlik subyektlarining savdo xizmatlariga keng jalb etilishi hamda elektron savdo va zamonaviy xizmat ko'rsatish shakllarining rivojlanishi ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

3. Qishloq va o'rmon xo'jaligi sohasidagi o'zgarishlar. Qishloq va o'rmon xo'jaligi sohasida ham barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. **2015-yilda** mazkur sohadagi tushum **652,3 mln so'mni** tashkil etgan bo'lsa, **2026-yilda** **12 780,5 mln so'mga** yetgan. Ushbu o'sish oilaviy fermerlik va kichik agrobiznesning rivojlanishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hajmining ortishi hamda agrotexnologiyalarning takomillashuvi bilan bog'liq.

4. Xizmat ko'rsatish sohaslarining rivojlanishi. Xizmat ko'rsatish sohalari ham oilaviy korxonalar iqtisodiy faoliyatining muhim yo'nalishiga aylangan. Jumladan, yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha tushum **2015-yildagi 466,4 mln so'mdan 2026-yilda 23 450,7 mln so'mga**, axborot va aloqa sohasida **35,4 mln so'mdan 5 670,2 mln so'mga**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida esa **109,8 mln so'mdan 17 320,4 mln so'mga** oshgan. Bu holat oilaviy korxonalar faoliyatida xizmat ko'rsatish sohaslarining diversifikatsiyalashuvi hamda yangi iqtisodiy yo'nalishlarning shakllanayotganini ko'rsatadi.

5. Boshqa iqtisodiy faoliyat turlarining ta'siri. Boshqa iqtisodiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha sof tushum ham sezilarli darajada oshgan. Xususan, **2015-yilda** ushbu ko'rsatkich **205,3 mln so'mni** tashkil etgan bo'lsa, **2026-yilda** **20 796,3 mln so'mga** yetgan. Bu ko'rsatkich oilaviy korxonalar faoliyatida turli xizmatlar hamda ixtisoslashgan kichik biznes yo'nalishlarining tobora kengayib borayotganini anglatadi.

Andijon viloyatida oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy mexanizmini baholashda ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari, tarmoq tarkibi, moliyaviy natijalari hamda rivojlanish omillarini tizimli ravishda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tashkiliy mexanizmning samaradorligi, avvalo, korxonalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimi, mehnat taqsimoti, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari hamda ishlab chiqarish faoliyatini muvofiqlashtirish darajasi bilan belgilanadi. Andijon viloyatida oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan olingan sof tushum dinamikasi asosida quyidagi tizimli tahlilni keltirish mumkin.

1. Oilaviy korxonalar faoliyatining iqtisodiy natijalarini tizimli baholash.

Andijon viloyatida oilaviy korxonalarning mahsulot va xizmatlar sotishdan olingan sof tushumi **2015–2026-yillar** davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jami tushum **2015-yilda 9 265,0 mln so'mni** tashkil etgan bo'lsa, **2026-yilga** kelib **194 580,3 mln so'mga** yetgan. Bu esa oilaviy korxonalarning iqtisodiy faolligi sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Mazkur o'sish tashkiliy boshqaruv mexanizmidagi ijobiy o'zgarishlar bilan bog'liq:

- oila a'zolari o'rtasida vazifalarning samarali taqsimlanishi;
- korxona faoliyatini strategik rejalashtirishning kuchayishi;
- investitsiya resurslaridan maqsadli foydalanilishi;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarining kengayishi;
- bozor talablariga mos boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi.

2. Tarmoqlar kesimida boshqaruv mexanizmining tahlili (4-jadval)

4-jadval

Tarmoqlar o'rtasida boshqaruv mexanizmining 2015–2026-yillardagi o'zgarishi tahlili⁶

Iqtisodiy faoliyat turi	2015-yil tushumi, mln so'm	2026-yil tushumi, mln so'm	O'sish darajasi	Tashkiliy boshqaruvga ta'siri
Sanoat	4 956,2	89 960,4	yuqori o'sish	Ishlab chiqarish boshqaruvi va texnologik yangilanish kuchaygan
Savdo	1 543,6	37 820,6	yuqori o'sish	Bozorga yo'naltirilgan boshqaruv usullari rivojlangan
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	652,3	12 780,5	yuqori o'sish	Resurslardan samarali foydalanish tizimi shakllangan
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	466,4	23 450,7	jadal o'sish	Xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruv diversifikatsiyalashgan
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	109,8	17 320,4	yuqori o'sish	Ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish imkoniyatlari oshgan
Axborot va aloqa	35,4	5 670,2	yuqori o'sish	Raqamli boshqaruv elementlari joriy etilgan

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, oilaviy korxonalar faoliyatida eng yuqori ulush sanoat va savdo sohaslariga to'g'ri keladi. Bu esa Andijon viloyatida oilaviy biznesning asosan ishlab chiqarish hamda bozor xizmatlari yo'nalishlarida rivojlanayotganini ko'rsatadi.

3. Boshqaruv mexanizmining asosiy tarkibiy elementlari tahlili.

Andijon viloyatidagi oilaviy korxonalar boshqaruv mexanizmini tizim sifatida quyidagi asosiy elementlar orqali ifodalash mumkin (5-jadval).

5-jadval

Oilaviy korxonalarni boshqarish mexanizmining asosiy tarkibiy elementlari tahlili⁷

Element ko'rinishlari	Amaldagi holati	Rivojlanish yo'nalishi
Boshqaruv tuzilmasi	Asosan oila a'zolari ishtirokida markazlashgan boshqaruv	Vakolatlarni taqsimlash va professional boshqaruvni kuchaytirish
Mehnat taqsimoti	Oila a'zolarining tajribasi va malakasiga asoslangan	Funksional vazifalarni aniq belgilash
Moliyaviy boshqaruv	Korxonaning ichki mablag'lari asosiy manba hisoblanadi	Investitsiya va kredit mexanizmlaridan keng foydalanish
Ishlab chiqarish boshqaruvi	Kichik hajmdagi ishlab chiqarishga moslashgan	Texnologik modernizatsiyani kuchaytirish
Innovatsion boshqaruv	Nisbatan past darajada	Raqamli texnologiyalarni joriy etish

4. Tizimli tahlil natijalari.

Tizimli tahlil natijalariga ko'ra, Andijon viloyatida oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy mexanizmida quyidagi tendensiyalar aniqlandi.

Birinchidan, **iqtisodiy salohiyatning o'sishi** kuzatilmoqda. Sof tushum hajmining ortishi oilaviy korxonalarning ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, **tarmoqlar diversifikatsiyasi** kuchaymoqda. Ilgari asosan savdo va qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan faoliyat bugungi kunda sanoat, xizmat ko'rsatish hamda axborot-kommunikatsiya sohalari hisobiga tobora kengayib bormoqda.


Uchinchidan, **investitsion faollikning ortishi** kuzatilmoqda. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining o'sishi korxonalarning texnik bazasini mustahkamlash hamda boshqaruv samaradorligini oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

To'rtinchidan, **boshqaruvni takomillashtirish zarurati** ortib bormoqda. Oilaviy korxonalar faoliyati kengayib borishi bilan moliyaviy rejalashtirish, marketing, raqamli boshqaruv hamda strategik qarorlar qabul qilish mexanizmlarini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila a'zolariga ta'sir etuvchi motivatsiyaviy boshqaruv mexanizmlari 2-rasmda keltirilgan (2-rasm).

⁶ Muallif ishlanmasi

⁷ Muallif ishlanmasi



2-rasm. Oilaviy korxonalarda ishlab chiqarish tadbirkorligini samarali boshqarishda oila a'zolarini rag'batlantirish tizimining ahamiyati⁸

Oilaviy korxonalarda xo'jalik tadbirkorligini barqaror rivojlantirish iste'mol bozoridagi talab va ehtiyojlar bilan doimiy uyg'unlikda amalga oshirilishi lozim. Bozor kon'yunkturasi, iste'molchilarning xohish-istaklari hamda raqobat muhitining o'zgarib borishi ishlab chiqarish faoliyatini muntazam takomillashtirib borishni taqozo etadi. Shu sababli oilaviy korxonalar mahsulot ishlab chiqarish jarayonini zamonaviy innovatsion yondashuvlar, yangi texnologiyalar hamda samarali boshqaruv usullari asosida tashkil etishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, oilaviy korxonalarda xo'jalik tadbirkorligini rivojlantirish jarayonida quyidagi asosiy yo'nalishlarga (6-jadval) alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

6-jadval

Andijon viloyatida oilaviy korxonalarni hududlar kesimida iste'molchilar talablarini o'rganish tahlili⁹

№	Hududlar	Oilaviy korxonalarning asosiy faoliyat yo'nalishlari	Iste'molchilarning asosiy talablari	Talablarni qondirish darajasi	Rivojlantirish yo'nalishlari
1	Andijon shahri	Savdo, xizmat ko'rsatish, kichik ishlab chiqarish	Sifatli, zamonaviy va tezkor xizmatlarga talab yuqori	Yuqori	Yangi xizmat turlarini joriy etish, raqamli savdoni rivojlantirish
2	Asaka tumani	Sanoat mahsulotlari, hunarmandchilik, xizmatlar	Sifatli va arzon mahsulotlarga ehtiyoj yuqori	O'rtacha-yuqori	Innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni kengaytirish
3	Shahrixon tumani	Savdo, oziq-ovqat mahsulotlari, maishiy xizmatlar	Mahalliy mahsulotlar va tezkor xizmatlarga talab mavjud	O'rtacha	Mahsulot assortimentini ko'paytirish
4	Andijon tumani	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, xizmatlar	Tabiiy va ekologik toza mahsulotlarga talab yuqori	O'rtacha	Qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish
5	Izboskan tumani	Oziq-ovqat, to'qimachilik, kichik ishlab chiqarish	Arzon va sifatli kundalik iste'mol tovarlariga talab yuqori	O'rtacha	Zamonaviy ishlab chiqarish usullarini tatbiq etish
6	Baliqchi tumani	Qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va maishiy xizmatlarga talab yuqori	O'rtacha	Mahsulotlarni bozorga chiqarish tizimini takomillashtirish
7	Marhamat tumani	Oziq-ovqat, hunarmandchilik, savdo	An'anaviy mahsulotlar va mahalliy brendlarga talab mavjud	O'rtacha	Marketing faoliyatini kuchaytirish


8 Muallif ishlanmasi

9 Andijon viloyat statistika boshqarmasining axborot tahlil ma'lumotlaridan olingan

8	Qo'rg'ontepa tumani	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish	Sifat va narx mutanosibligiga e'tibor yuqori	O'rtacha	Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish
9	Paxtaobod tumani	Qishloq xo'jaligi, savdo xizmatlari	Kundalik ehtiyoj tovarlariga talab yuqori	O'rtacha	Sotuv kanallarini kengaytirish
10	Jalaquduq, Bo'ston, Bo'loqboshi, Ulug'nor, Xo'jaobod tumanlari	Kichik ishlab chiqarish, xizmatlar	Mahalliy aholi ehtiyojlariga mos mahsulotlarga talab mavjud	O'rtacha	Oilaviy korxonalar faoliyatini diversifikatsiya qilish

Hududlar kesimida iste'molchilar talablarini o'rganish natijalari oilaviy korxonalar faoliyatini bozor ehtiyojlariga moslashtirish, mahsulot sifatini oshirish, yangi xizmat turlarini joriy etish hamda innovatsion ishlab chiqarish usullaridan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Bunda ishlab chiqarish jarayonini bozor talablariga moslashtirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq qondirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, oilaviy korxona tadbirkorlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi iste'mol bozorlariga chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar **3-rasmda** keltirilgan.



3-rasm. Oilaviy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlarining tashqi bozorlarga chiqarilishi va eksport boshqaruviga ta'sir etuvchi omillar tizimi¹⁰

Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish hamda marketing faoliyatini takomillashtirish orqali korxonaning iqtisodiy samaradorligini yanada yuksaltirish mumkin. Oilaviy korxonalarni rivojlantirish jarayonida ayrim muammo va to'siqlar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu omillarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish korxonalarning nafaqat ichki faoliyati samaradorligini oshirishga, balki eksport salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Oilaviy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda eksport faoliyatini samarali boshqarishda bozor talablarini o'rganish, mahsulot sifatini oshirish, xalqaro standartlarga moslashish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

10 Muallif tomonidan mavzuga oid adabiyotlar asosida ishlab chiqilgan



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Andijon viloyatidagi oilaviy korxonalarda boshqaruvning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. Tizimli tahlil natijalariga ko'ra, boshqaruv vakolatlarini oqilona taqsimlash, investitsion faollikni rag'batlantirish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish hamda bozor talablariga mos faoliyatni tashkil etish oilaviy korxonalarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu asosda oilaviy korxonalarda professional boshqaruv elementlarini keng joriy etish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish, innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aparicio G., Ramos E., Carlos J., Iturralde T. (2021). *Family business research in the last decade: A bibliometric review*. European Journal of Family Business, 11, 33–44.
2. Berkinov B.B. Oilaviy tadbirkorlikning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2018. – № 4. – Iyul–avgust. – B. 1–7.
3. Davletov J.B. O'zbekistonda «Har bir oila – tadbirkor» konsepsiyasi va uning innovatsion mohiyati: fals. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Samarqand, 2020. – 50 b.
4. H. C., Tan J. D., Sugiarto S., Widjaja A. W., & Pramono R. (2021). *Too Big to Fail: Succession Challenge in Large Family Businesses*. The Journal of Asian Finance, Economics and Business, 8(1), 199–206. <https://doi.org/10.13106/JAFEB.2021.VOL8.NO1.199>
5. Kelleci R., Lambrechts F., Voordeckers W., & Huybrechts J. (2019). *CEO Personality: A Different Perspective on the Nonfamily versus Family CEO Debate*. Family Business Review, 32(1), 31–57. <https://doi.org/10.1177/0894486518811222>
6. Kuvandikov Sh.O. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlik rolini oshirishning metodologik masalalari: fals. fan. dok. (DSc) avtoref. – Samarqand, 2021. – 59 b.
7. Lenz R., Schormüller C., & Glückler J. (2020). *Legitimation Strategies in an Emerging Field: Family Firm Succession Consultancy in Germany*. Zeitschrift für Wirtschaftsgeographie, 64(2), 58–73. <https://doi.org/10.1515/ZFW-2019-0019>
8. Letonja M., Duh M., & Zenk Z. (2021). *Knowledge Transfer for Innovativeness in Family Businesses*. Serbian Journal of Management, 16(1), 181–199. <https://doi.org/10.5937/SJM16-31199>
9. Llanos-Contreras O. A., & Jabri M. (2019). *Exploring Family Business Decline with Socioemotional Wealth Perspective*. Academia Revista Latinoamericana de Administración, 32(1), 63–78. <https://doi.org/10.1108/ARLA-02-2018-0042>
10. Lu F., Kwan H. K., & Ma B. (2021). *Carry the Past into the Future: The Effects of CEO Temporal Focus on Succession Planning in Family Firms*. Asia Pacific Journal of Management. <https://doi.org/10.1007/S10490-020-09748-4>
11. Lude M., & Prügl R. (2019). *Risky Decisions and the Family Firm Bias: An Experimental Study Based on Prospect Theory*. Entrepreneurship Theory and Practice, 43(2), 386–408.
12. McAdam M., Clinton E., & Dibrell C. (2020). *Navigation of the Paradoxical Landscape of the Family Business*. International Small Business Journal, 38(3), 139–153. <https://doi.org/10.1177/0266242619898610>
13. Memili E., Welsh D. H. B., & Kaciak E. (2014). *Organizational Psychological Capital of Family Franchise Firms through the Lens of the Leader-Member Exchange Theory*. Journal of Leadership & Organizational Studies, 21(2), 200–209. <https://doi.org/10.1177/1548051813515513>
14. Murodova N.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. (DSc) avtoref. – T., 2016. – 107 b.
15. Nazer J. R., & Llorca-Jaña M. (2020). *Succession in Large Nineteenth-Century Chilean Family Businesses*. Business History. <https://doi.org/10.1080/00076791.2020.1717471>
16. Nordqvist M., Melin L., Waldkirch M., & Kumeto G. (2015). *Introducing Theoretical Perspectives on Family Business*. In: *Theoretical Perspectives on Family Businesses* (pp. 1–17). Cheltenham: Edward Elgar Publishing.
17. Krueger N., Bogers M. L. A. M., Labaki R., & Basco R. (2021). *Advancing Family Business Science Through Context Theorizing: The Case of the Arab World*. Journal of Family Business Strategy, 12, 100377, pp. 1–6.
18. Pardayeva O.M. Xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo'llari: fals. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Samarqand, 2020. – 60 b.
19. Ransburg D., Sage-Hayward W., & Schuman A. M. *Human Resources in the Family Business: Maximizing the Power of Your People*. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2016.
20. Whetten D. A., Foreman P., & Der W. G. (2014). *Organizational Identity and Family Business*. In: Melin L., Nordqvist M., & Sharma P. (Eds.). *The SAGE Handbook of Family Business*. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, pp. 480–497.
21. Shnurovov T.V. *Semeyniy biznes po-russki*. – M.: Dashkov i K, 2013. – 208 s.
22. Smirnov V.V. *Razvitiye semeynogo biznesa kak faktor ozdoravleniya ekonomiki Rossii v usloviyakh krizisa*. – Vladimir: VGU, 2008. – 20 s.
23. Vasilyev M.V. *Kriterii i opredeleniya semeynoy firmy: evolyutsiya vzglyadov yevropeyskikh i rossiyskikh issledovateley // Problemy teorii i praktiki upravleniya*. – 2012. – № 7–8. – S. 155–162.
24. Xasanov I.M. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlik salohiyatining iqtisodiy natijadorligini oshirish (Farg'ona viloyati misolida): iqt. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Namangan, 2021. – 60 b.



25. Yuldashev D.T. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: iqt. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – T., 2019. – 62 b.
26. Yuldashev Z.Y., Malikov T.S. *Moliya: uy xo'jaligi moliyasi*. – T.: Iqtisod–Moliya, 2008. – 110 b.
27. Ахмаджонов Х.И. Ўзбекистон хонадонлари молия ресурсларини шаклланиши ва ижтимоий-иқтисодий аҳамияти: иқтисод фанлари номзоди диссертацияси. – Т.: Банк-молия академияси, 2006. – 8 б.
28. Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitoblar qilinib tuzilgan.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100